

INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR YUZASIDAN LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Farg‘ona filiali, ingliz tili o‘qituvchisi

binafshatoshtemirova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola frazeologik birliklarning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari va talabalarda bu borada bilim hamda ko‘nikmalarni takomillashtirish haqida bo‘lib, ishning asosiy tadqiqot obyekti sifatida olingan ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar orqali masala yuzasidan olg‘a surilgan fikrlar yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *idiomalar, frazeologizmlar, ta’limiy metodlar, lingvokulturologiya, pragmatika.*

Muvaffaqiyatli muloqotga kirishish maqsadida so‘zlovchilar turli xil lisoniy vositalardan foydalanadilar va ularning orasida frazeologik birliklarning o‘rni beqiyosdir. Frazeologik birliklar nutq jarayonida faol ishlatilib, ularning asosiy funksiyasi tilning tasviriy bo‘yoqdorligini oshirish, so‘zlovchining nutqiy maqsadini yaqqol namoyon etishdir. Shu sababli frazeologizmlar tilshunoslikning qator sohalari, jumladan frazeologiya, kognitiv lingvistika, pragmatika, lingvokulturologiya va boshqalarning asosiy o‘rganish obyekti hisoblanadi. Mazkur maqolada frazeologik birliklarning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari hamda ularni samarali o‘qitish masalalari ingliz va o‘zbek tillari misolida tadqiq etiladi.

Frazeologik birliklar boshqa til birliklaridan nutq faoliyatiga tayyor holda kirib kelishi, leksik va semantik jihatdan mos kelmasligi, ma’no jihatdan turg‘unligi bilan farqlanadi.

Frazeologik birliklarni o‘rganish va ularni dars davomida talabalarga o‘qitish pedagogdan turli madaniyatlar to‘g‘risida (xususan, ingliz va o‘zbek madaniyati) chuqur bilimga ega bo‘lishni talab etadi. Har bir til birligini, jumladan frazemalarni o‘rganishda mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning tarixi, yashash tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar, dini va e’tiqodi haqida yetarlicha tushunchaga ega bo‘lish til o‘rganish jarayonini yanada maroqli va oson kechishiga yordam beradi. Mashhur tilshunos olim

V. N. Telia frazeologik birliklarga quyidagicha ta'rif beradi: "frazeologizmlar madaniyatga xos hodisalarning lingvistik ifodasi bo'lib, milliy mentalitet va ushbu tilda so'zlashuvchilarning madaniy qadriyatlarini aks ettirish qobiyatiga egadir". Shuning uchun ham, aytishimiz mumkinki, til va madaniyat chambachas bog'liq tushunchalar bo'lib, birni o'rganish ikkinchisi yuzasidan izlanishlar olib borishni taqozo etadi, bu holat ayniqsa frazeologik birlik misolida yaqqol kuzatilishi mumkin. Frazeologik birliklar shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganiladi:

- 1) Universal ma'noga ega frazemalar;
- 2) Ma'lum madaniyatgagina tegishli bo'lgan frazemalar (culturally-bound phraseological units).

Yuqorida keltirilgan klassifikatsiya o'zbek va ingliz tillarida keng qo'llaniladigan frazeologik birliklar misolida atroflicha talqin qilinishi mumkin. Misol uchun, o'zbek tilidagi "o'rmonga o'tin ko'tarib bormoq" iborasida ishtirok etgan konseptlar ("o'rmon", "o'tin") o'zbek millati va madaniyati uchun yaqin tushunchalardir. Bu ibora ingliz tilida "to carry coal to Newcastle" shaklida mavjud bo'lib, ingliz xalqiga tanish bo'lgan voqelik natijasida vujudga kelgan. Bu frazemaning etimologiyasiga e'tibor bersak, Newcastle Angliyada joylashgan tarixiy ko'mir qazib olish markazi ekanligi, shu sababli muloqotda "befoyda ishni qilish" (ya'ni ko'mir ko'p bo'lgan Newsactle shahriga o'tin ko'tarib borish) ma'nosida qo'llanuvchi tayyor turg'un birikma shaklida kirib kelgan, va so'zlovchilarning faol lug'aviy bazasi tarkibidan joy olgan. Masalan, *To teach English in England is to carry coals to Newcastle, but it is still paid. (Angliyada ingliz tilini o'qitish o'rmonga o'tin ko'tarib borgandek gap, lekin unga haq to'lanadi.)* Bunday frazeologik birliklar bir qancha va millatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujjasam etgan. O'zbek tilidagi "tuyaning dumi yerga tekkanda" iborasi ingliz tilida "when pigs fly" tarzida nutqiy faoliyatda foydalaniladi. O'zbek xalqining muloqotida "tuya" leksik birligi kengroq qo'llanilganligi sababli, frazeologik birliklar tarkibida uchrashi tabiiy hol sifatida ko'riladi. Ingliz millati uchun esa "pigs", ya'ni "cho'chqalar" leksemasi tanish obyekt sanalib, tilning frazeologik sathida ham o'z o'rniga ega tushunchadir. Mazkur ikki millatning lingvamadaniy o'ziga xosligi yuqorida aytib o'tilgan frazemalarda o'z isbotini topgan.

Bunday frazeologik birliklarga oid bilimlarni shakllantirish uchun bir nechta ta'limiy metodlar tavsiya etilishi mumkin, bulardan biri – konteks asosida o'qitishdir (context-based teaching). Bu metodning asosiy maqsadi talabalarning lug'at boyligini oshirish, til birliklari yuzasidan batafsil bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish hisoblanadi. Mazkur o'qitish metodi quyidagi shaklda olib borilishi mumkin:

Talabalar bir frazema ishtirok etgan bir nechta kontekslar (qisqa matnlar) bilan ta'minlanadi va o'quvchilardan konteksga e'tibor bergan holda mazkur frazeologik birlikning ma'nosini taxmin qilishlari so'raladi. Agar tanlab olingan frazema madaniyat bilan bog'liq bo'lsa, o'quvchilarda ilk fikrni shakllantirish uchun shu xalq va madaniyat haqida o'qituvchi tomonidan ma'lumotlar aytib o'tiladi. Misol uchun, "Achilles heel" frazemasini ingliz tilidan tarjima qilinganda "nozik joy" degan ma'noni anglatishini bilib olishimiz mumkin. Bu idiomani kelib chiqishi faqatgina ingliz madaniyati bilan bogliq bo'lganligi uchun talabalar uning asl ma'nosini taxmin qila olish uchun o'qituvchi tomonidan ushbu frazeologik birlikning etimologiyasi (qadimda sodir bo'lgan "Troya" urushi, dong'i ketgan qahramon Axil va uning yaralanishi) haqida tushunchalar berilishi lozim, shundan keyingina dars jarayonida quyidagi kontekslardan foydalanish mumkin.

- *He's a good golfer, but his **Achilles' heel** is his putting and it's often made him lose matches.*
- *The country's dependence on imported oil could prove to be its **Achilles' heel** if prices keep on rising.*
- *Though he was a good person, his short temper was his **Achilles heel**.*
- *The tennis player had a great serve, but his returns were not as good and that could prove to be his **Achilles heel**.*

Bu berilgan kontekslardan foydalanib o'quvchilardan mazkur frazeologizmning ma'nosini taxmin qilishlari so'raladi. Har bir fikr inobatga olinadi, tahlil etiladi va to'g'ri javob bergan talabalar rag'batlantiriladi. Ushbu metod kichik guruhlar bilan ishlaganda yanada samarali bo'lib, guruhlararo sog'lom raqobat tufayli, o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlari ortadi. Kichik guruhlarda ishlashning yana bir afzallik tomoni shundaki, past darajada o'zlashtiruvchi talabalar yaxshi o'zlashtiruvchi guruhdoshlari bilan fikr almashishlari va shu orqali mavzu yuzasidan bilimlarini mistahkamlashlari mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, frazeologizmlar tillarning asosini tashkil etib, o'zida tillarning rivojlanish tarixi, shu tilda so'zlovchi xalqning milliy va madaniy o'ziga xosliklarini namoyon eta oladi. Talabalarda frazeologik birliklar yuzasidan lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish pedagoglar oldida turgan muommoli masalalardan biridir. O'quvchilarda bunday malakalarni yuzaga keltirish uchun esa, puxta o'ylangan ta'limiy metodlardan foydalanish eng samarali usullardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amriddinova H. "Linguocultural features of teaching English phraseology in the examples of Uzbek and English languages". "Экономика и социум" №12(91) 2021
2. 1. Bada E. Culture in ELT. Cukurova University Journal of Social Sciences (6), 2000.
3. Ciccarelli A. Teaching culture through language: Suggestions for the Italian language class. *Italica*. 73 (4), 1996.
4. Krasner I. The role of culture in language teaching. *Dialog on Language Instruction*. 13 (1-2), 1999.